

# Termiz shahridagi maktablarda til va kasb o'rgatishni rivojlantirish choralari belgilandi



Termiz shahridagi maktablarda til va kasb o'rgatishni rivojlantirish choralari belgilandi

Xabaringiz bor, kecha Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda maktab o'quvchilarini kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish ustuvor vazifa etib belgilangan edi.

Ushbu belgilangan ustuvor vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida bugun, shahar hokimligida xalq ta'limi bo'limi mas'ullari, maktab direktorlari va ularning tegishli o'rinbosarlari bilan uchrashuv o'tkazildi. Unda viloyat hokimining o'rinbosari I.Saparov, Termiz shahar hokimi O'ktam To'rayev, viloyat soliq boshqarmasi boshlig'i E.Narmanov, sektor rahbarlari va aloqador mas'ullar ishtirok etishdi.

Uchrashuvda 2023-yildan o'quvchilarni maktablarda xorijiy til va kasbga o'rgatish, ularni daromad topadigan ish bilan ta'minlash bo'yicha mahallalar drayveridan kelib chiqqan asosli fikr-mulohazalar bildirildi va amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan tegishli chorra-tadbirlar belgilandi.








Image not found or type unknown

